

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22\29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KASIMOVA GULYAR AXMATOVNA

**G‘AZNACHILIK TIZIMIDA IJTIMOYIY SOHANING MOLIYAVIY
TA‘MINOTI USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation abstract

Kasimova Gulyar Axmatovna

G‘aznachilik tizimida ijtimoiy sohaning moliyaviy ta‘minoti uslubiyotini takomillashtirish..... 3

Касимова Гуляяр Ахматовна

Совершенствование методологии финансового обеспечения социальной сферы в казначейской системе33

Kasimova Gulyar Akhmatovna

The Improving the methodology of financial support of the social sphere in the treasury system.....67

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22\29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KASIMOVA GULYAR AXMATOVNA

**G‘AZNACHILIK TIZIMIDA IJTIMOYIY SOHANING MOLIYAVIY
TA‘MINOTI USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.DSc/Iqt255-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Xaydarov Nizomiddin Hamroyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
huzuridagi Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22\29.12.2023.I.175.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 10.08 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (8 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "18" 07 kuni tarqatildi.
(2024 yil "29" 05 dagi 2 -raqamli reyestr bayonnomasi).



(Handwritten signature)

Sh.Sh. Turayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T.Absalamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

D.A.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda shaxsning ijtimoiy ta'minot, tibbiy xizmat, ta'lim olish va o'z qobiliyatini ko'rsatish erkinligini ta'minlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jahon banking hisobotlarida keltirilishicha, "maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim va yoshlarda yangi ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida oliy ta'limni rivojlantirishga Jahon banki tomonidan umumiy qiymati 15 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi 150 taga yaqin ta'lim loyihalari moliyalashtirildi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sog'liqni saqlash xarajatlarini qoplash maqsadida 500 mln. AQSh dollaridan ortiq mablag' ajratilib, shundan 425 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag' katta epidemiyalarga olib kelishi mumkin bo'lgan kasalliklarni oldini olishga yo'naltirildi"¹. Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlashga investitsiyalar miqdorini keskin kengaytirish, innovatsion sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni takomillashtirish, ijtimoiy sohaga ichki va tashqi moliyaviy resurslarni safarbar qilishni taqozo etmoqda.

Jahonda ijtimoiy sohaning rivojlanishini ta'minlash uchun uning tarkibiy qismlarini iyerarxik modelidan foydalanish asosida moliyalashtirish tizimi takomillashtirilmoqda. Ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirishda davlat va xususiy tibbiy sug'urtadan, "natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish" usulidan, "kraudfanding", "endaument" (maqsadli kapital) fondlaridan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish hamda aholining turmush darajasi va faravonligini izchil oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Lekin, ushbu izlanishlarda iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida ta'lim va sog'liqni saqlashga qarashli budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, g'aznachilik organlarida ijtimoiy soha tarkibidagi budjet tashkilotlari xarajatlarini o'z vaqtida to'lash, budjet mablag'larini nazorat qilish, budjet va budjetdan tashqari mablag'larning samaradorligini va maqsadlilikini oshirish mexanizmi to'liq o'rganilmagan.

O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarida belgilangan vazifalarni bajarish, aholi talablari va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini moliyaviy ta'minlashda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Bu esa ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan budjet mablag'lari bilan ta'lim va tibbiyot sohalarini rivojlantirish, ta'lim va tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi oshirish, uch-yetti yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim hamda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish uchun ijtimoiy soha tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirishni tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

¹ <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/259801562965232326-0270022019/original/2030Agenda2019finalweb.pdf>

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5590-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 4312-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrda “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi “Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 407-son qarori ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” mavzusidagi ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Ijtimoiy sohaning moliyaviy ta‘minoti va ijtimoiy sohani moliyalashtirishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar xalqaro tashkilotlar, jahondagi yetakchi universitet va markazlarda, jumladan, World Vapk, The Financing of Education in Philippines (UNESCO), Public funding of health spending (OECD), Department of Business & Economics, Universidad de Almeria (Spain); University of Helsinki and Aalto University Business School (Finland); University of Szczecin (Poland);

²The Financing of Education in Philippines. Tenazas, N. 2022. Costing and Financing SDG4-Education 2030 in the Asia-Pacific Region Project. UNESCO 2022. <https://bangkok.unesco.org/>; “Public funding of health spending”, in Health at a Glance 2019:OECD Indicators, OECD Publishing, Paris.DOI: <https://doi.org/10.1787/7f66369c-en> ; Marta Łakomy-Zinowik., Zuzana Horváthova. Public - private partnerships as a way of financing in the healthcare system (based on the examples of Poland and The United Kingdom). November 2016. 9(3):150-158.; Denis E. Matytsin, Valentin A. Dzedik, Galina A. Markeeva, Saglar B.Boldyreva. “Smart” outsourcing in support of the humanization of entrepreneurship in the artificial intelligence economy. Humanities and social sciences communications |(2023)10:13 | <https://doi.org/10.1057/s41599-022-01493-x>.; Matti Ylönen. Cities as world-political actors? The “tax haven free” cities initiative and the politics of public procurement. Palgrave communications.| 2:16041 | DOI: 10.1057/palcomms.2016.41 <http://www.palgrave-journals.com/palcomms>.; McCordR., Connolly R., Freeman Z., Whitener V., and K Konopaski. (December 2021). Review of the Health Care Authority’s Budget Structure. 21-04 Final Report.; Joint Legislative Audit and Review Committee, Olympia, Washington. https://leg.wa.gov/jlarc/reports/2021/HCA/f_3/print.pdf ; Megan Schoor, Mandy Stahre and Eddy Rauser. Medical Assistance Expenditures Forecast Charter Project Summary. MAEFW Charter Project. OFM Forecasting and Research Division. Washington. Shazia Kousar. Farhan Ahmed. Muhammad Afzal & Juan E. Trinidad Segovia. Is government spending in the education and health sector necessary for human capital development? Humanities and social sciences communications. (2023) 10:62 | <https://doi.org/10.1057/s41599-023-01514-3>.; Sandro Marques& Eduardo Damião da Silva. Cost-effectiveness in health: consolidated research and contemporary challenges. Humanities and social sciences communications. (2021) 8:254 | <https://doi.org/10.1057/s41599-021-00940-5/>; V. Kyrlyuk, I. Ryabokon. Role of social sphere in ensuring quality of working life. (2021) VUZF review, 6(3). <https://portal.issn.org/resource/issn/2534-9228>.

Metropolitan University Prague (Czech Republic); NED University of Engineering & Technology (Pakistan); Moscow State Institute of International Relations (MGIMO University) under the Ministry of Foreign Affairs of the Russian Federation, (Russia); Toshkent moliya instituti (sobiq), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan olib borilmoqda.

Ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tartibi va davlat tibbiy sug‘urtasi asosida tibbiyot muassasalari daromadlari va xarajatlarini to‘g‘ri prognozlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash va baholash, xarajatlarni tahlili asosida sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlari barqarorligiga erishish asoslangan (The Medical Assistance Expenditure Forecast Workgroup, Washington); tibbiy xizmat sifatini yaxshilash uchun muqobil variantlarni ishlab chiqish, sog‘liqni saqlash tizimida “Covid-19”dan ilgari paydo bo‘lgan dolzarb muammolarni davlat va xususiy sektorda hal qilish zarurligi ilmiy asoslangan (Stanford University–EUA, Stanford, CA, USA); tibbiyotning maktabgacha ta‘lim, maktab ta‘limi va oliy ta‘lim o‘rtasidagi qisqa va uzoq muddatli munosabatlarni empirik tahlil qilish va baholash imkoniyatlari asoslangan (Department of Business & Economics, Universidad de Almeria, Spain); mamlakatda davlat budjetini shakllantirish jarayonida fuqarolarning ishtirok etishi orqali tashabbusli budjet mexanizmi asosida ijtimoiy sohaga oid dolzarb muammolarni hal qilish imkoniyati asoslangan (University of Helsinki and Aalto University Business School, Finland); tibbiyot va ta‘lim sohasiga oid ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda DXSh o‘rtasidagi eng maqbul sheriklik imkoniyati asoslangan (Metropolitan University Prague, Czech Republic); davlat budjetining sog‘liqni saqlash xarajatlari va aholini umr ko‘rish darajasi o‘rtasidagi dinamik aloqani ilmiy izohlashga erishilgan (NED University of Engineering & Technology, Pakistan); budjet tashkilotlari tomonidan autsorsingdan foydalanish algoritmini aniqlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatkichlar indeksi bilan yakuniy ko‘rsatkichlar indeksi yig‘indisidan iborat yakuniy natijalar indeksi asosida budjet xizmatini autsorsingga berish to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlar aniqlangan va baholangan (Moscow State Institute of International Relations (MGIMO University) under the Ministry of Foreign Affairs of the Russian Federation, Russia); budjet xizmatini ko‘rsatishda raqobatbardosh bozor subyektlari (autsorser)ning xizmatidan foydalanish orqali budjet xarajatlarini optimallashtirishga erishish imkoniyati asoslangan (Volgograd State University, Russia).

Xalqaro amaliyot ko‘rsatishicha, ijtimoiy sohaning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash juda murakkab vazifa bo‘lib, xanuzgacha mazkur masalaning ilmiy jihatdan maqbul yechimi topilmagan. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy sohani moliyaviy ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan: ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini qo‘llash; ta‘lim va sog‘liqni

saqlash tizimi tashkilotlaridagi bemorlarni ovqatlantirishda outsorsing mexanizmini qo'llash; ijtimoiy sohani moliyalashtirishda endowment fondlaridan foydalanish; sog'liqni saqlash tizimida tibbiy sug'urtani qo'llash; ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishda "natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish" uslubini qo'llash, ta'lim va tibbiyot tashkilotlarini moliyalashtirishda tashabbusli budjet amaliyotini qo'llash; raqamli iqtisodiyotda ijtimoiy sohaga qarashli budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy majmualardan foydalanish masalalari shular jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minotining nazariy jihatlarini bir qator olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Xorijlik olimlardan T.Shultz, M.Liang, H.Yangyang, Z.Liuying, K.Yongjian, E.Kelly, A.Ormond, A.Blasimme, C.Brall, E.Vayena, A.Olugbenga, O.Nordhoug, P.Romer, M.Gerrard, V.Helden, G.Jan, R.Hodges, X.Han, A.Primer, S.Thomson, R.Osborn, D.Squires, M.Jun, K.Sostas, R.George³ kabi olimlar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan I.Akperov, M.Buxtik, K.Budkevich, O.Glushakova, I.Glazunova, S.Golovach, I.Demina, A.Djamalov, Dorofeyev, A.Yermolenko, M.Yegorova, O.Kachkova, A.Kiyevich, I.Konopleva, T.Krishtaleva, L.Milova, Ye.Serper, M.Samoxoves, Ye.Faxrutdinova, B.Chenib, D.Sheptunov, N.Emirov, A.Emirova⁴ va

³ T.Schultz. Investment in Human Capital. The Role of Education and of Research. H.Y.,1971. 62.; Liang M., Yangyang H., Liuying Z., Yongjian K. Are public-private partnerships still an answer for social infrastructure? A systematic literature review. *Front. Eng. Manag.* 2023, 10(3): 467–482. <https://doi.org/10.1007/s42524-023-0249-1> E.Kelly, A.Ormond, A. Blasimme, C.Brall, E.Vayena. Talking Ethics Early in Health Data Public Private Partnerships. Received: 29. July 2022./Accepted. *Journal of Business Ethics.* 2024. 190:649–659 . <https://doi.org/10.1007/s10551-023-05425-w> ; Olugbenga Adeshola. Treasury Management Practices. Financial Performance and Sustainability in Banking Sector. March 2024. *Management of Organizations: Systematic Research* 90(1):86-99.4 Nordhoug O. Human Capital in Organizations: Competence, Training and Learning. Oslo. Scandinavian University Press. 1993. - P.52.; P.M.Romer. Science, Economic Growth and Public Policy.1996.; Gerrard M.B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations? *Finance & Development.* 2001. Vol. 38.; V.Helden, G.Jan, R.Hodges. Public Sector Accounting and Budgeting for Non-Specialists Edition. USA. -P.256.; Han Xu. Does government support affect private partners' profitability in public-private partnerships? Evidence from China . *Humanities and social sciences communications.*(2023)10:223 | <https://doi.org/10.1057/s41599-023-01723-w> ;Primer A. For Endowment Granmakers Ford Fountion. March 12. 2001. <http://www.fordfound.org/elibrary/documents/5016/toc>.; Methodology to improving energy efficiency of building envelope of heath sector. ESTOA. *Revista de la Facultad de Arquitectura y Urbanismo de la Universidad de Cuenca.*2022. https://www.academia.edu/95239360/Methodology_to_improving_energy_efficiency_of_building_envelope_of_heath_sector?sm=b&rhid=28685523830 ; Thomson S., Osborn R., Squires D., Jun M. "International Profiles of Health Care Systems Australia Canada Denmark England France Germany Iceland Italy Japan the Netherlands New Zealand Norway Sweden Switzerland and the United States". http://www.Commonwealthfund.org/media/files/publications/fund_report/2014/nov/.; University-industry collaboration: A closer look for research leaders. Updated: January 27. 2021. <https://www.elsevier.com/research-intelligence/university-industry-collaboration/> 4 K.Costas, P.George. Private education expenditure in a free education country: The case of Greece. *International. // Journal Educational Development.* 1997. №17 (1). –P.73-81;

⁴ Акперов И.Г., Коноплева И.А., Головач С.П.Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. -Москва. Кно.Рус.2022.-633 стр.; Будкевич К.А., Самоховец М.П. Финансирование социальной сферы Республики Беларусь: проблемы и пути решения. // *SCI-ARTICLE.RU: научный периодический рецензируемый электронный журнал.* 2018. № 54. –С. 219-225.; Глушакова О.В. Подходы обеспечению сбалансированности бюджетов в условиях цикличности развития экономики в контексте совершенствования казначейских технологий управления бюджетной ликвидностью. // *Финансы и кредит.* –М.: 2017. №5.–С.19-40.44 Glazunova I. Sheptunov D., Treasury Support as a Budgetary and Legal Tool for Improving the Efficiency of

boshqalarning ilmiy asarlarida ijtimoiy sohaga qarashli budjet tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmining uslubiy jihatlari tadqiq etilgan.

Ijtimoiy sohaga qaratilgan tadqiqotlar mamlakatimiz olimlari jumladan, Q.Abduraxmonov, D.Abdujalilova, T.Atamurodov, A.Abdullayev, Q.Artiqov, N.Bo‘riyeva, R.Djumanova, Z.Beknazarov, J.Butayev, N.Jumayev, J.Zakirov, F.Zayniddinov, N.Jiyanova, Z.Karimova, T.Malikov, M.Mansurov, S.Mexmonov, O.Olimjonov, A.Ostonokulov, D.Tashmuxeimedova, D.Raxmonov, A.Tursunov, D.Pulatov, S.Umurzakov, M.Umrzoqova, N.Haydarov, S.Hayitov, S.G‘ulomov, T.Eshnazarov⁵ va boshqalarning ilmiy

Using Budget Funds. April. 2024. Academic Law Journal 25 (1):76-85.; Джамолов А.А. Формирование и развитие рынка государственных закупок в условиях рыночной экономики.// Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Душанбе. 2019. 25 стр.; Дорофеев В.Г. Казначейская система исполнения бюджета в Республике Беларусь. Учебное пособие.-УП.: Издательство Вышэйшая школа. 2017.-215 стр.; Ермоленко А.В. Казначейский контроль в управлении бюджетным процессом субъекта Российской Федерации. // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. –М. 2021. -29 стр.; Ермоленко А.В. Учет бюджетных обязательств. // Экономические науки. 2018. 164. июль. –С.77-83.; Егорова М.Т. Теоретико-методологические основы оптимизации и трансформации бюджетного процесса.// Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. –Донецк. 2022. 44 стр.; Егорова М.Т. Казначейское сопровождение целевых средств. Монография. – Донецк.: ДонНУЭТ. 2021. 136стр.; Качкова О.Е., Кришталева Т.А., Демина И.Д. Финансовый контроль в государственных муниципальных учреждениях. Учебник. –Москва. КРОНИУС. 2021. -290 стр.; Милова Л.Н., Серпер Е.А. Организация казначейской деятельности. Учебное пособие. –Самара: Изд-во Самар. гос. экон. ун-та, 2019.-80 стр.; Самоховец М.П., Бухтик М.И., Киевич А.В. Бюджетное финансирование социальной сферы Республики Беларусь.// Экономические науки. –Минск.: 2020. № 3. –С.2-9.; Фахрутдинова Е.В. Роль социальной сферы и социальной политики в обеспечении устойчивого социально-экономического развития страны. // Экономические науки. –М.: 2009.№ 8 (57). – С.7.; Эмиров Н.Д., Эмирова А.У. Системная модель инновационного управления социальной сферы. Монография. -Москва.: Проспект. 2017. -144 Стр.; Чениб Б.Р. Управление денежными потоками в казначейской системе исполнения бюджетов Российской Федерации. //Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. –Владикавказ. 2018. -27 стр .

⁵ Abduraxmonov Q.X. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. -Toshkent.: “Fan va texnologiya”. 2013. - 418 b.; Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -Toshkent.: “Iqtisodiyot”. 2019. -256b; Abdujalilova D.A Oliy ta’lim muassasalarida to’lov-kontrakt mablag‘larining daromadlari va ularni hisobga olish amaliyoti. // «Moliya» ilmiy jurnali. - Toshkent, 2023.4-son. Avgust. 5-12-b.; Atamurodov. T.T. Davlat xaridini tashkil etish: nazariy asoslari va uslubiy shart-sharoitlari. // “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. – T.: 2019. №3. iyun.; Abdullayev A.F. Maktabgacha ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning nazariy asoslari va o‘ziga xos jihatlari. // “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. –T.: 2019. №2. iyun.; Artiqov Q.A. Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo‘yicha xarajatlar hisobi va nazoratini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent. 2023.-25b.; Beknazarov Z.E. Ijtimoiy sug‘urta: asosiy ko‘rsatkichlar tahlili. // // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnal. – Toshkent. № 2. 2021 yil. –B.136-144.; Butayev J. Inson kapitaliga investitsiyalar tahlili va uning ahamiyati. www.interfinance.uz.\ “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. -Toshkent. 2020. -№5. oktyabr.; Bo‘riyeva N.X. Sog‘liqni saqlash tizimining moliyaviy ta’minoti va buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari. Monografiya. T.: “Navro‘z”. 2019. -128b.; Jumayev N.X., Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ta’lim tizimini moliyalashtirishda ta’lim kreditining o‘ziga xos xususiyatlari. www.interfinance.uz.\ “Xalqaro moliya va hisob» elektron jurnali. -T.: 2018. №2. aprel.; Zakirov J. Анализ работ, выполненных в области государственных закупок. Moliyachi ma’lumotnomasi. // Ilmiy jurnal. Toshkent. 2024. №1. –B. B.66-68. WWW.tcmf.uz 4 ; Zayniddinov F.Sh. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati. www.interfinance.uz.\ “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. –Toshkent. 2017. -№ 2. aprel.; Jiyanova N.A. Osobennosti finansirovaniya sosialnoy sfery na sovremennom etape ekonomicheskogo razvitiya.\ Moliya. - Toshkent. 2014.№2. –S.10-14; Jiyanova N.E., Shernayev A.A. Davlat moliyasini boshqarish. –Toshkent. Elektron darslik. 2019.; Djumanova R.F. Aholi turmush darajasi: ko‘rsatkichlari va uni oshirish yo‘llari// Iqtisod fanlari nomzodi olish uchun diss. avtoreferati. –T. 2008. -B.25.; Malikov T.S., Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2009. -556 b.; Malikov T.S., Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2019. -969 b.; Mehmonov S.U., Karimova Z.X., Tursunov A.S. Byudjet tizimi. Darslik. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. -544 b.; Mansurov M.A. Davlat moliyasi tizimida g‘aznachilik va uni rivojlantrish istiqbollari Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent. 2019. 25.; Ostonoqulov A.A. “Budjet nazorati”. O‘quv qo‘llanma. “IQTISOD- MOLIYA”. 2018 yil. 324 b.;

ishlarida Davlat budjetining ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi tarkibidagi budjet tashkilotlari moliyaviy ta'minotining amaliy jihatlari qisman o'z aksini topgan. Mazkur ilmiy ishlarda Davlat budjetidan ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlarini moliyalashtirish bo'yicha umumiy mulohazalar berilgan. Biroq, raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy soha xarajatlarini budjetdan va budjetdan tashqari mablag'lardan moliyalashtirish hamda g'aznachilik tizimida ijtimoiy soha xarajatlarini to'lash bilan bog'liq muammolar mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida kompleks tadqiqot shaklida alohida o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq kilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "O'zbekiston Iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazida IL21101893-sonli "Kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi g'aznachilik tizimida ijtimoiy sohaning moliyaviy ta'minoti uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat ijtimoiy siyosatida ijtimoiy sohaning tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib berish;

ijtimoiy sohani moliyalashtirish asosida inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishni ilmiy asoslash;

g'aznachilik tizimida ijtimoiy sohani budjetdan moliyalashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish va ilmiy baholash;

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlarini tahlil qilish;

ta'lim va sog'liqni saqlashni moliyalashtirish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish va ilmiy baholash;

ta'lim va sog'liqni saqlashni moliyalashtirishda DXSh mexanizimidan foydalanishni o'rganish va ilmiy baholash;

Tashmuxeimedova D. Byudjet g'azna ijrosi. O'quv qo'llanma.- T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. -500 b.; Raxmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari. Monografiya. T.: Fan va texnologiya. 2017.-248 b.; Pulatov D.X. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti g'azna ijrosini takomillashtirishning metodologik jihatlari. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. -T. 2017. - B.65.; Umurzakov S.A. G'aznachilik organlarining integrallashgan axborot tizimlari faoliyatini optimal tashkil qilish jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent. 2018. -28 b.; Umrzoqova M.O'zbekistonda tibbiy sug'urtaning shakllanish shart-sharoitlari va rivojlanish omillari. // Ekspert. - Toshkent. 2019.№ 1. -B. 13-17.; Xayitov S.B. Sog'liqni saqlash sohasini davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi asosida rivojlantirish. // "Iqtisodiyot va ta'lim". -T.: 2022. № 2. dekabr. -B.280-285.; G'ulomov S.S. "Aqlli ta'lim" va "aqlli tibbiyot"da investitsiyalarning samaradorligini oshirish omillari.\\ Moliya. 2018. №4 -B.79.; G'ulomov S.S., Ergashev R.X, Xamrayeva S.N. Raqamli iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: 2020. -377 b; Eshnazarov T.Sh. G'aznachilik tizimi munosabatlari. Monografiya. -T.: Fan. 2008. -304 b.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohaning moliyaviy ta'minoti uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish mexanizmi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning nazariy, amaliy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar dan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil va yondashuv, qiyosiy va tarkibiy tahlil, iqtisodiy-statistik, ekonometrik, korrelyatsion-regression tahlil, monografik tadqiqot, guruhlashtirish, umumlashtirish, solishtirish, prognozlashtirish va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy soha tashkilotlari uchun davlat xaridlari summasining bir milliard so'mgacha tuziladigan shartnomalari bo'yicha 30 foiz to'lovni kassali rejalashtirishni takomillashtirish orqali budjet tashkilotlaridagi kreditor qarzdorlikni kamaytirish taklif etilgan;

Davlat budjetidan oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalariga subsidiya ajratishni tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi shtat birliklarini tarbiyalanuvchilar soniga nisbati asosida moliyalashtirish orqali bolalar qamrovini oshirish asoslangan;

iste'mol narxlari indeksi tebranishining salbiy ta'sirini yumshatishda rasmiy inflyatsiya miqdorida shartnoma qiymatiga o'zgartirish kiritishni joriy qilish orqali 1-4-sinf o'quvchilarini Davlat budjeti hisobidan bepul ovqatlantirish barqarorligini ta'minlash asoslangan;

ishonchli outsorserlar bilan tuziladigan shartnomalar muddatini 1 yildan ortiq muddatga uzaytirishda davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun har bir lotda ma'muriy-geografik asosda bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan 250 baravaridan 1000 baravargacha tabaqalashtirish orqali outsorserga investitsiya kiritish majburiyatini belgilash taklif etilgan;

davlat tibbiy sug'urtasida shartnoma va kafolatlangan paket hajmi asosida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish uchun to'lovlarni "davolangan har bir holat" va bajarilgan ishlar natijasi asosida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tartibini joriy qilish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy sohaning o'ziga xos xususiyatlari, muhim belgilari, funksiyalari va taraqqiyot bosqichlari tasniflangan va tavsiflangan;

davlat maktabga ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

davlat-xususiy sheriklik asosida maktabga va maktab ta'limi tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hajmini oshirish zaruriyati asoslangan;

ekonometrik modelni qo'llash orqali ijtimoiy sohaning davlat budjetidagi ulushi va iqtisodiy o'sish o'rtasida uzoq va qisqa muddatli kuchli bog'lanish mavjudligi isbotlangan, modeldagi ko'rsatkichlar bo'yicha kelgusi besh yil uchun YaIM o'sishining prognoz qiymatlari aniqlangan;

bir nafar tarbiyalanuvchiga kunlik zaruriy kilokaloriya bo'yicha ovqatlantirish xarajatlarini moliyalashtirishda insonga e'tibor asosida yosh avlod sog'lig'i barqarorligini ta'minlash asoslangan;

O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmini joriy qilish orqali sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari asoslangan.

Tadqiqot natijalari ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar, usullar va metodologiyaning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomondan amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijtimoiy sohaga qarashli budget tashkilotining xarajatlarini moliyalashtirishni takomillashtirish, "Davlat budjeti", "Mahalliy budjet", "G'aznachilik" va "G'aznachilikning dasturiy komplekslari" fanlarini ilmiy va nazariy jihatdan rivojlantirishga xizmat qilishi hamda Davlat budjeti g'azna ijrosini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ijtimoiy soha tizimini moliyalashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalarda o'z ifodasini topadi. Amaliy natijalardan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda oliy o'quv yurtlarida sohaga oid fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'aznachilik tizimida ijtimoiy sohaning moliyaviy ta'minotini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ijtimoiy soha tashkilotlari uchun davlat xaridlari summasining bir milliard so'mgacha tuziladigan shartnomalari bo'yicha 30 foiz to'lovni kassali rejalashtirishni takomillashtirish orqali budget tashkilotlaridagi kreditor qarzdorlikni kamaytirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martdagi "Vazirlar Mahkamasining budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 2011-yil 24-avgustdagi 241-son qaroriga qo'shimcha kiritish haqida"gi 139-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 29-fevraldagi 05-36-232-son ma'lumotnomasi). Natijada, yil bo'yi xarajatlar tendensiyasini va xarajatlarni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan qo'shimcha ehtiyojlarni aniqlash imkoniyati oshirilgan, ijtimoiy sohaga qarashli budget tashkilotlarining kreditorlik qarzdorligi yuzaga kelish xavfi kamaygan.

davlat budjetidan oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalariga subsidiya ajratishni tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi shtat birliklarini tarbiyalanuvchilar soniga nisbati asosida moliyalashtirish orqali bolalar qamrovini oshirishga doir

taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 426-son “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 29-fevraldagi 05-36-232-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Davlat budjetidan davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 2022-yilda 1500,0 mlrd. so‘m, 2023 yilda 2259,4 mlrd. so‘m subsidiyalar ajratilgan. 2022-yilda 22429 ta maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrovi 68,0 foizga yetkazilgan.

iste’mol narxlari indeksi tebranishining salbiy ta’sirini yumshatishda rasmiy inflyatsiya miqdorida shartnoma qiymatiga o‘zgartirish kiritishni joriy qilish orqali 1–4-sinf o‘quvchilarini Davlat budjeti hisobidan bepul ovqatlantirish barqarorligini ta’minlashga doir taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-avgustdagi 472-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 29-fevraldagi 05-36-232-son ma’lumotnomasi). Natijada, 2022-yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati mahalliy budjetiga boshlang‘ich sinf (1–4-sinf) o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash uchun 100,0 mlrd. so‘mdan jami 200,0 mlrd. so‘m ajratilgan.

ishonchli autsorserlar bilan tuziladigan shartnomalar muddatini 1 yildan ortiq muddatga uzaytirishda davlat maktabgacha ta’lim muassasalari uchun har bir lotda ma’muriy-geografik asosda bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan 250 baravardan 1000 baravargacha tabaqalashtirish orqali autsorserga investitsiya kiritish majburiyatini belgilashga doir taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 407-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 29-fevraldagi 05-36-232-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, autsorserlarning tanlovdagi takliflari asosida tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalar summasi 88,8 mlrd. so‘mga yetgan, autsorserlar tomonidan davlat maktabgacha ta’lim muassasalariga 53,1 mlrd. so‘m investitsiya kiritishga erishilgan, muassasa oshxonasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun zamonaviy jihozlar bilan to‘ldirilgan.

davlat tibbiy sug‘urtasida shartnoma va kafolatlangan paket hajmi asosida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun to‘lovlarni “davolangan har bir holat” va bajarilgan ishlar natijasi asosida sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tartibini joriy qilish taklifi dissertant yakka muallifligida yaratilgan “Ijtimoiy sug‘urta” nomli darslikda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2019 yil 2 maydagi 394-son buyrug‘iga asosan 394-034-raqamli

mualliflik guvohnomasi). Natijada, davlat tibbiy sug'urtasining nazariy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan 6 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, shu jumladan 2 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, 12 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 9 ta tezis, jumladan 6 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 234 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Mavzu bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohaning tutgan o'rni va nazariy-huquqiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida davlat ijtimoiy siyosatida ijtimoiy sohaning tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy sohani budjetdan moliyalashtirishning nazariy-uslubiy asoslari tavsiflanib, «bilimlarga asoslangan iqtisodiyot»da inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan, xorijiy davlatlarda ta'lim hamda sog'liqni saqlash sohasini boshqarish va moliyalashtirishning muammolari ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohani rivojlantirish va mazkur sohaning moliyaviy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan davlat ijtimoiy siyosati va ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan.


Ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat: inson uchun qulay yashash sharoitini yaratish va yaxshilash; fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va kafolatlarini ishonchli himoya qilish; aholini ijtimoiy himoyalash, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini takomillashtirish. Ijtimoiy siyosat subyektlari quyidagi-lardan iborat: shaxs, davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes vakillari.

I.Sergeyev, N.Kirsanova, I.Kirsanovlar davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlarida ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratadilar. Jumladan, “ijtimoiy siyosatning modellari jamiyatda ijtimoiy sohaga va fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligiga davlat aralashuvini, ijtimoiy barqarorlikning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri bo‘yicha bir-biridan farqlanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ijtimoiy sohaning taraqqiyoti hisoblanadi”⁶, degan xulosaga keladilar.

Fikrimizcha, ijtimoiy siyosat – jamiyatdagi har bir shaxs hayoti va faoliyati uchun ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, aholi daromadlarini oshirish, aholi turmush darajasini ko‘tarish, ish bilan bandligini ta‘minlash, ijtimoiy sohalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Ijtimoiy sohaning rivojlanishini baholovchi va tartibga soluvchi mezonlari uning asosiy vazifalarini aniqlaydi. Bu vazifalarni bajarishda ta‘lim va tibbiyot muassasalarining faoliyatini rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilmani kengaytirish asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

N.Istomina “ijtimoiy sohaning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmasa va budjetdan moliyalashtiriladigan ijtimoiy sohaga qarashli tashkilotlar va muassasalar yetarli darajada moliyalashtirilmasa aholining kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qondirilmaydi”⁷, deb ta‘kidlaydi.

Fikrimizcha, ta‘limni budjetdan moliyalashtirish ijtimoiy ne‘mat sifatida fuqarolarga ta‘lim xizmatini ko‘rsatish zaruriyati va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ta‘limning ahamiyatiga asoslanadi. Tibbiyot muassasalari ham bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bevosita insonlar hayoti va mehnati bilan chambarchas bog‘langan. Fikrimizcha, ijtimoiy soha tizimi – bir-biri bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan va aholining turmush darajasi, farovonligi hamda ehtiyojlarini belgilovchi muassasalar va tashkilotlar majmuasidir. Ijtimoiy soha – jamiyat rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan sohadir, mazkur soha nafaqat alohida shaxslar, guruhlar, balki, jamiyat manfaatlarini ifoda etadi (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy sohaning tarkibiy tuzilishi⁸

Tadqiqotchilar R.Djumanova va N.Jiyanovalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy sohani moliyalashtirish masalasida aholi turmush darajasi va hayot sifati kabi ko‘rsatkichlarga e‘tibor qaratiladi. “Mamlakatda

⁶Сергеев И., Кирсанова Н., Кирсанова И. Развитие социальной сферы: приоритеты регулирования. // Экономист. 2007. № 1. – С. 46-55.

⁷ Истомина Н. А. Бюджет субъекта Федерации как инструмент регулирования социальной сферы региона // Региональная экономика: теория и практика. 2012. № 35.

⁸ Tadqiqotchi tomonidan mavzuga oid o‘rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan.

ijtimoiy sohani moliyalashtirishga ustuvorlik berish, davlat budjetidan ijtimoiy soha xarajatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq"⁹, deb ta'kidlaydilar. Kishilarning ta'lim olganlik darajasi ularning o'z sog'lig'iga munosabati bilan to'g'ri proporsional ekanligini ta'kidlaydilar. O'zbekiston 2030 yilga qadar o'rta daromadli davlatlar qatoriga kirishi uchun ijtimoiy sohani moliyalashtirish ko'lamini kengaytirishning dolzarbligini asoslab beradilar.

Ijtimoiy sohani moliyalashtirish darajasi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv sharoitida ijtimoiy sohani moliyalashtirishga moliyaviy resurslarni jalb etish mexanizmning o'ziga xos jihatlari mamlakatdagi iqtisodiy tizimning xarakteri hamda ijtimoiy soha tarkibiy qismining xususiyatiga bog'liq. Ijtimoiy sohani moliyalashtirishga ajratiladigan mablag'larni shakllantirish uchun quyidagilar talab etiladi: mamlakatda YaIM hajmini oshirish; Davlat budjetining YaIMdagi ulushini oshirish; Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga ajratiladigan mablag'lar ulushini tahlil qilish va baholash; ijtimoiy sohani moliyalashtirishda xususiy sektor ulushini oshirish.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida YaIMdagi Davlat budjeti va ijtimoiy soha xarajatlarining ulushining o'zgarishi¹⁰

Ko'rsatkichlar						
Yillar	YaIM mlrd. so'm	Davlat budjeti xarajatlari mlrd. so'm	Davlat budjeti xarajatlari ning YaIMdagi ulushi foizda	Ijtimoiy soha xarajatlari mlrd. so'm	Ijtimoiy soha xarajatlari ning davlat budjetidagi ulushi foizda	Ijtimoiy soha xarajatlari ning YaIMdagi ulushi foizda
2019	511837,0	107118,4	20,1	63542,4	59,3	12,4
2020	602 551,0	144142,7	23,9	65048,5	45,1	10,8
2021	734 588,0	188257,1	25,6	86624,4	46,0	11,8
2022	852 625,0	214800,0	25,1	105199,5	49,0	13,1
2023	990 343,0	257734,0	26,0	129891,0	50,4	13,1

Yuqoridagi 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida 2019-2023 yillar bo'yicha Davlat budjeti va ijtimoiy soha xarajatlarining YaIMdagi ulushi ko'rsatilgan. Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda 2019-2023 yillarda Davlat budjetidan ijtimoiy sohaga ajratilgan xarajatlar qariyb 2,0 martaga ko'paygan. Ayni paytda YaIM hajmi bu davrda qariyb 1,9 marta, Davlat budjeti xarajatlari 2,4 marta oshgan. Buning natijasida ijtimoiy soha xarajatlarning YaIM ulushi 12,4 foizdan 13,1 foizgacha oshgan. Agar 2019 yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan jami xarajatlarning 59,3 foizi jami Davlat budjeti xarajatlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 50,4 foizga teng bo'lgan.

⁹Жиянова Н. Особенности финансирования социальной сферы на современном этапе экономического развития. // Молия. -Тошкент. 2014. -№2. –С.10-14.

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari asosida tuzilgan.




2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlarining YaIMdagi ulushining o‘zgarishi¹¹

O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirish iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va aholini munosib turmush darajasini ta’minlash talablariga javob berishi kerak. Shu sababli bugungi kunda ijtimoiy sohani rivojlantirish va mazkur tizimni moliyalashtirish manbalarini ko‘paytirishni taqozo etadi. Ijtimoiy sohaga ajratiladigan budjet xarajatlarining muhim yo‘nalishlaridan biri ta’limga ajratiladigan xarajatlar hisoblanadi. O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga ajratilgan xarajatlar tarkibini tahlil qilish natijalari shundan dalolat beradiki, 2019–2023-yillarda ta’lim uchun ajratilgan xarajatlar jami ijtimoiy sohaga ajratilgan budjet xarajatlarining katta qismini tashkil etadi. 2019-2023 yillar ichida respublikamizda ta’lim sohasiga budjetdan tashqari mablag‘lar hajmi ham oshdi. Ijtimoiy soha tarkibida xarajatlarining yana bir muhim yo‘nalishi sog‘liqni saqlashga ajratiladigan xarajatlar ta’limdan keyingi o‘rinni egallaydi. Agar 2019-yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan jami xarajatlarning 19,1 foizi sog‘liqni saqlash hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 21,9 foizga yetgan. Ushbu soha xarajatlarining YaIM dagi ulushi esa 2019-2023-yillar mobaynida 2,4 foizdan 2023-yilda 2,9 foizgacha oshgan.

Quyidagi 3-rasmda O‘zbekiston Respublikasida Davlat budjetidan sog‘liqni saqlashga ajratilgan mablag‘lar tarkibi ko‘rsatilgan. Sog‘liqni saqlash xarajatlariga 2019-yilda sog‘liqni saqlash xarajatlari 12078,0 mlrd.so‘m tasdiqlangan. Sog‘liqni saqlash xarajatlarida yuqori ulushni ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar tashkil etadi. 2022-yilda ushbu maqsadlar uchun 16057,7 mlrd. so‘m (70,6 foiz) miqdorida ajratilgan. 2023-yilda ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar uchun 20361 mlrd. so‘m miqdorida (71,6 foiz) mablag‘ ajratilgan.

¹¹O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma’lumotlari asosida tuzilgan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag'lar tarkibi¹²

Tibbiyot muassasalarning moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga 526 mlrd.so'm mablag' (2,7 foiz) ajratildi.

Xulosa qilib aytganda, "COVID-19" pandemiyasining salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida, birinchi navbatda, "COVID-19" tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish, sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, cheklov chora-tadbirlarini joriy etilishidan ko'proq zarar ko'rgan iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishda budjet mablag'lari bilan birga pullik tibbiy xizmat hisobiga moliyalashtirishdan ham keng foydalanildi. Kelajakda tibbiy xizmat sifatini yanada oshirish uchun xususiy tibbiyot muassasalarining faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratish orqali raqobat muhiti shakllantirildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ijtimoiy soha xarajatlarining to'lovini amalga oshirishda g'aznachilik institutining faoliyati**" deb nomlanib, mazkur bobda Davlat budjeti xarajatlari ijrosida g'aznachilik tizimidan foydalanish zaruriyati, g'aznachilik tizimida ijtimoiy soha xarajatlarini nazorat qilish va to'lash mexanizmi tahlil qilingan. Shuningdek, g'aznachilik tizimida kassali rejalashtirish va Xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnoma berish tartibi ijtimoiy soha kesimida tadqiq etilgan.


Byudjet xarajatlari juda ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. "Byudjet xarajatlari" tushunchasining mohiyatini tahlil qilish asosida budjet xarajatlarining quyidagi xususiyatlarini ko'rsatish mumkin: jamiyatda belgilangan davlat funksiyalarining bajarish shartligi; budjet xarajatlarining asosliligi; budjet

¹²O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

to'g'risidagi qonunda tasdiqlangan xarajatlarning shakli; budget xarajatlarining doimiyliigi. S.Ye.Prokofyev ta'kidlashicha, "g'aznachilik organlari qonunchilik va normativ hujjatlar bilan, turli darajadagi budgetdan moliyalashtiriladigan budget tashkilotining kassa ijrosini amalga oshirish tartib-qoidalari belgilangan ixtisoslashgan institut bo'lib, mazkur institut budget nazorati, buxgalteriya hisobi va kassa xizmatini ko'rsatish funksiyalarini bajaradi"¹³.

G'aznachilikning quyidagi asosiy funksiyalarini alohida ko'rsatish muhimdir.

- 1.Davlat kassiri. Byudjet daromadlarini qabul qiladi; budget xarajatlarini to'laydi.
- 2.Davlat buxgalteri. Byudjet daromadlari va xarajatlarini balanslashtiradi; budget daromadlari tushumi va budget xarajatlarini amalga oshirish vaqtidagi farqni bartaraf etadi; iqtisodiyot, ijtimoiy soha, ijtimoiy himoya va boshqa xarajatlarini moliyalashtiradi. Fikrimizcha, G'aznachilik organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari davlat moliyasini samarali boshqarish, davlatning moliyaviy faoliyati uchun Yagona axborot makonini yaratish, moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish, davlat sektoriga qarashli budget tashkilotlari uchun kassa xizmatini ko'rsatish, Xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalarni berish (XTR) asosida budget to'lovi tizimini yaxshilash asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g'azna ijrosida g'aznachilik modelini takomillashtirishni taqozo etadi.



4-rasm. G'aznachilik organlari faoliyatining yo'nalishlari¹⁴

Fikrimizcha, g'aznachilik tizimida ijtimoiy sohaga qarashli budget tashkilotlarining xarajatlarini o'z vaqtida to'lash hamda budget mablag'larining samaradorligiga erishish, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyalangan xarajatlarni to'lash bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Byudjet ijrosi – budget jarayonining eng asosiy bosqichlaridan biridir, budget

¹³Прокофьев С.Е. Расходный блок Федерального казначейства: основные тенденции развития. // Бюджет. 2011. № 5 С. 72-77.

¹⁴ Tadqiqotchi tomonidan mavzuga oid o'rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan.

mablag'larini to'plash hamda mazkur mablag'lardan foydalanish harakatlari bo'lib, davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Davlat budjetining g'azna ijrosi – budjet xarajatlari va budjet daromadlari ijrosini tashkil etishdir. Byudjet tashkilotlarining nomidan va albatta, moliya organlari tasdig'iga ko'ra kassali to'lovlarni amalga oshiradi. Barcha budjet tashkilotlari, budjetdan mablag' oluvchilar va taqsimlovchilarning kassiri bo'lgan G'aznachilik tomonidan Yagona g'azna hisobvarag'ida budjet mablag'lari samarali boshqariladi. Faznachilik tizimida budjet tashkilotlarini "UzASBO" dasturiy majmua bilan "DMBAT" dasturiy majmuaning integrasion bog'liqligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Barcha budjet tashkilotlarining "kassiri" va "buxgalteri" sifatida g'aznachilik organlari Yagona g'azna hisobvarag'ini tashkil etadi, uning hisob-kitob yuritadi va budjet ijrosi to'g'risida moliyaviy hisobotlar tayyorlaydi.

Kassali rejalashtirish – daromadlar tushumi prognozi, xarajatlar rejalari yig'indisi hamda ularga tuzatishlar kiritishning tezkor mexanizmidir, deb xulosa qilish mumkin. Davlat budjeti barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy sohaga qarashli budjet tashkilotlarining xarajatlarini o'z vaqtida to'lash g'aznachilikda kassali rejalashtirishga oid tashkiliy masalalar o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, g'aznachilikda budjet mablag'larini sarflashda kassali rejalashtirish va Xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar berish mexanizmidan foydalanish Davlat budjeti mablag'larini tezkor va samarali boshqarish va kassa tafovutlari yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik imkoniyatini yaratadi. Faznachilik tomonidan budjet tashkilotiga beriladigan XTRda aks ettiriladigan vazifalar vaqtinchalik kassa tafovutlari yuzaga kelishini oldindan belgilash va ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish maqsadida imkon qadar qisqa vaqt oralig'ida budjet ijrosiga qarab moliyaviy yil davomida daromadlar tushish hajmi, xarajatlarni amalga oshirish muddatini oldindan belgilanadi.


Bizning fikrimizcha, ijtimoiy soha tashkilotlari uchun davlat xaridlari summasining bir milliard so'mgacha tuziladigan shartnomalari bo'yicha 30 foiz to'lovni kassali rejalashtirishni takomillashtirish orqali budjet tashkilotlaridagi kreditor qarzdorlikni kamaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Byudjetning g'azna ijrosida ijtimoiy sohani moliyalashtirish amaliyotining tahlili"** deb nomlanadi, O'zbekistonda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasini budjetdan moliyalashtirishning hozirgi holati tahlil qilingan, ijtimoiy sohani moliyalashtirishda davlat xaridi jarayonlarini tashkil etish masalalari o'rganilgan, shuningdek ijtimoiy soha xarajatlari va iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi masalalarining empirik tahlili asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Quyidagi 6-rasmda Davlat budjeti xarajatlarining ta'lim turlari bo'yicha tarkibiy tuzilishi berilgan. Maktabgacha ta'lim xarajatlari 2020-yilda 5166,2 mlrd. so'm miqdorda tasdiqlangan, budjet ijrosi 4 895,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Karantin kiritilishi hamda bolalar bog'chalarining faoliyatini bir necha oyga to'xtatilishi bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlari xarajatlari boshqa sohalar kabi maqbullashtirildi.

Mazkur tahlil ma'lumotlaridan bu holatni shunday izohlash mumkinki, ta'lim tizimidagi budget siyosati quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga qaratiladi: 2026-yilgacha maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini kamida 80 foizdan oshirish; 2024-yil yakuniga qadar 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan to'liq qamrab olish; maktab ta'limi tizimi uchun o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'liq qayta ishlab chiqish; yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi Maktablarni rivojlantirish davlat dasturini ishlab chiqish; oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizga yetkazish hamda ta'lim sifatini yanada oshirish; oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash tizimini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasida 2019–2020-yillardan boshlab davlat va jamiyatni rivojlantirish istiqbollarini strategik rejalashtirish tizimiga oid uslub va yondashuvlar o'zgardi. Shu nuqtai nazardan budgetni o'rta muddatga rejalashtirish budget islohotining shunchaki navbatdagi bosqichi hisoblanmay, makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy vaziyatni oldindan taxmin qilishni ta'minlash uchun zaruriy shart bo'ldi. Ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi. 2022–2023-yillarda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar Davlat budgeti xarajatlari tarkibining 49,0-50,4 foizini tashkil etdi. Shu xarajatlardan mos ravishda bu ko'rsatkich 21,7-22,6 foizi aynan ta'lim sohasiga yo'naltirilganligi davlat ta'lim siyosatining o'ziga xosligidan darak beradi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalari soni 2020-yilda 15156 ta, 2021-yilda 21487 ta, 2022-yilda 26996 ta, 2023-yilda 29144 taga yetgan, bu ko'rsatkich 2020-yildan 2023-yillarda 13988 taga ko'paygan.



5-rasm. Davlat budgeti xarajatlarining ta'lim turlari bo'yicha tarkibiy tuzilishi¹⁵

¹⁵O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar to'lovi miqdori ularning joylashgan joyi va ularning ish rejimi muddatiga bog'liq. 2019-yil 1-maygacha bolalarni davlat MTMda saqlash uchun ota-onalar to'lovi miqdori 2018-yil darajasida saqlanib qoldi, 2019-yil 1-maydan boshlab ota-onalar to'lovining yangi miqdori joriy etildi. Imtiyoz tarbiyalanuvchilar umumiy sonining 15 foizi doirasida belgilandi, imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari ham oylik ota-onalar to'lovi bo'yicha imtiyozlarga ega bo'ldi. Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida uchun bolalarni MTMda saqlash uchun ota-onalar to'lovi miqdori 2023-yil 1-yanvargacha 2 barobar pasaytirildi.

Respublikamizda bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilishni kengaytirish uchun 2020–2021-yillarda yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, amaldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish davom ettirildi. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining quvvatini oshirish zaruriyati paydo bo'ldi. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish maqsadida davlat tomonidan ushbu sohada DXShni rivojlantirish mexanizmi faol qo'llab-quvvatlandi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni oshirishga qaratilishi kerak. Agar bugungi kunda bolalarning 60-70,0 foizigina bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga borayotgan bo'lsa, 2031-yilga kelib bolalarning 85,0 foizini maktabgacha ta'limga jalb qilish rejalashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat turlarining ortishi hamda ushbu sohada davlat-xususiy sheriklikning yanada rivojlanishi hisobiga bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovi oshirilishi mumkin



6-rasm. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'zgarishi¹⁶

¹⁶O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining xarajatlarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish talab etiladi. Bizning fikrimizcha, Davlat budjetidan oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalariga subsidiya ajratishni tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi shtat birliklarini tarbiyalanuvchilar soniga nisbati asosida moliyalashtirish orqali maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar qamrovini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi va tarbiyachi-yordamchilarga Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ish haqi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va boshqa ajratmalar ushlangandan so'ng, to'g'ridan-to'g'ri ushbu xodimlarning plastik kartasiga o'tkazib berish kerak.

Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ular tomonidan yollangan tarbiyachi va tarbiyachi yordamchilarga ish haqini to'lash uchun – 9 soatlik ish rejimidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu xodimlar uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari va miqdorida ajratiladi. Bunda oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari yangi yollangan tarbiyachilar va tarbiyachi yordamchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimi (NMTTBAT)ga kiritishi lozim. Oilaviy MTTga ish haqi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining lavozimi, ma'lumoti va malaka toifasi hisobga olingan holda quyidagi formula asosida NMTTBATda hisob-kitob qilinadi:

$$IHS = (BTS * XIS / IKS * (DKS + AKS) + TKS) * (1 + ISS)$$

IHS – oilaviy MTT xodimiga ish haqi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya summasi;

BTS – xodimning lavozimi, ma'lumoti va malaka toifasi uchun belgilangan bazaviy tarif stavkasi;

XIS – xodimning lavozimi bo'yicha belgilangan ish stavkasi;

IKS – joriy oydagi ish kunlari soni;

TKS – oilaviy MTT joylashgan hudud uchun qonunchilikda belgilangan tuman koeffitsiyenti summasi;

DKS – NMTTBATda qayd etilgan xodimning davomat kunlari soni;

ISS – ijtimoiy soliq stavkasi.

AKS – xodimning aybisiz (ob-havoning keskin sovub yoki isib ketishi natijasida ta'lim muassasalarining faoliyati vaqtincha to'xtatilganda, sanitariya-epidemiologik vaziyat, boshqa favqulodda holatlarda) bekor turib qolingun kunlar soni. Ushbu kunlar soni oilaviy MTT rahbari tomonidan asoslovchi hujjatlar tegishli maktabgacha va maktab ta'limi organiga NMTTBAT orqali taqdim etildi. 2021-yilda maktabgacha ta'lim sohasida xususiy sektorning ulushi 25 foizni tashkil etdi. Maktabgacha ta'lim sohasiga xususiy sektorning jalb qilish va xususiy sektorning ijtimoiy javobgarligi yanada oshirildi. Oilaviy maktabgacha ta'lim

muassasalari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini oshirishga erishildi.

Respublikamizda umumiy ta'lim muassasalarining 2019–2023-yilgi asosiy ko'rsatkichlari berilgan. Umumiy ta'lim muassasalari soni 2019-yilda 9772 ta bo'lsa, 2020-yilda 10097 taga oshgan, 2021 yilda 10207 ta, 2022-yilda 10707 ta, 2023-yilda 11050 taga yetgan, 2019-yildan 2023-yilgacha 1278 taga oshgan. Maktablarning soni 2019-yilda 9457 ta bo'lsa, 2020-yilda 9770 taga oshgan, 2021-yilda 9862 ta, 2022-yilda 9836 ta, 2023-yilda 9972 taga yetgan, 2019-yildan 2023-yilgacha 515 taga oshgan. Ixtisoslashgan maktablarning 2019-yildan 2023-yilgacha 159 taga oshganligi umumiy ta'lim tizimida maktablarni aniq fanlarga ixtisoslashtirish ishlariga katta e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Lekin jismoniy/ruhiy o'smay qolgan bolalar uchun maktab-internatlar soni 2019-yildan 2023-yilgacha 2 taga ko'paygan. 2019-2023-yillarda maktab-internatlar soni 2019-yilgi 69 ta bo'lsa, 2023-yilda 69 ta o'zgarishsiz qolganligini ko'rish mumkin.


O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PISA 2025 tadqiqot dasturida O'zbekiston Respublikasining ishtiroki ta'minlanadi. "Erta yoshdagi bolalar ta'limi sifati va natijalarini baholash bo'yicha xalqaro MELQO (Measuring early learning quality outcomes) baholash tizimi" asosida "Bolalarning erta yoshdan rivojlanishi va maktabgacha ta'lim sifatini baholashning milliy tizimi"ni joriy etiladi. Maktab o'quvchilarning yoshi va sog'lig'i holatiga ko'ra, me'yorlangan va sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan holda ovqatni yetkazib berish yo'lga qo'yilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, iste'mol narxlari indeksi tebranishining salbiy ta'sirini yumshatishda rasmiy inflyatsiya miqdorida shartnoma qiymatiga o'zgartirish kiritishni joriy qilish orqali 1–4-sinf o'quvchilarini Davlat budjeti hisobidan bepul ovqatlantirish barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hududlarda masofaviy usulda umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatish orqali ovqatlanishni shartnoma asosida tashkil etish, ovqatlarni tayyorlash, yetkazib berish va tayyor pazandachilik mahsulotlarining chakana savdosini amalga oshirish xizmatlarini ko'rsatish keytering deb ataladi. Keytering tashkilotini tanlab olish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan texnik talablarga ko'ra "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq xarid qilish tartib-taomillari asosida tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm viloyati hokimligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov (tender) yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi. Tanlov (tender) o'tkazish bo'yicha e'lonlar va qo'yiladigan umumiy talablar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ishtirokchiga taqdim qilinadi hamda buyurtmachi tomonidan davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasiga joylashtiriladi. Oziq-ovqat bilan ta'minlashning o'rtacha narxi vazirlik tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda har o'quv yili uchun tasdiqlanadi. O'rtacha narx sanitariya-gigiyena me'yorida belgilangan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini hududdagi mahsulotning o'rtacha bozor narxiga ko'paytirgan holda aniqlanadi.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy o‘shish bilan budget xarajatlari, xususan, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan xarajatlar tahliliga bag‘ishlangan. Xalqaro amaliyotda o‘zaro bog‘liqlar kointegratsion bog‘liqlik deyiladi, bunda ARDL va Engel Greyner metodlari qo‘llaniladi. Mazkur gipotezani tekshirish 2006-yildan 2023-yilgacha budgetning ijtimoiy soha (IS_X), ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport, fan xarajatlari hamda iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari jamlandi (7-rasm).

Tadqiqot bo‘yicha iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy xarajatlar o‘rtasida o‘zaro ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumiy holda, ta‘lim xarajatlari inson kapitali va iqtisodiy o‘shishga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.



7-rasm. 2006–2023-yillardagi budgetning ijtimoiy soha xarajatlari va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik¹⁷

Shuningdek, turli ta‘lim darajasining iqtisodiy o‘shishga ta‘siri o‘rganilganda, ta‘limni oliy ta‘lim, o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich ta‘limga ajratildi. Ekonometrik tahlil natijalari oliy ta‘limning iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘siri ayniqsa, yuqori ekanligini, boshlang‘ich ta‘lim va o‘rta ta‘lim iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir o‘tkazishini ko‘rsatdi. Engel va Grayner kointegratsion testi, Yoxansen testi asosida ijtimoiy soha xarajatlari va iqtisodiy o‘shish o‘rtasida qisqa va uzoq muddatli bog‘lanish mavjudligi aniqlandi. Ijtimoiy sohaning Davlat budgetidagi ulushi va iqtisodiy o‘shish o‘rtasida uzoq va qisqa muddatli kuchli bog‘lanish

¹⁷ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

mavjudligining VAR modeli asosida isbotlanishi, modeldagi ko'rsatkichlar bo'yicha kelgusi besh yil uchun prognoz qiymatlarini aniqlash imkonini berdi.

Ijtimoiy sohaga xarajatlar va iqtisodiy o'sish o'rtasida uzoq muddatli kointegratsion bog'lanish mavjud. Xususan ijtimoiy sohaga xarajatlar 1,0 foiz ortishi umumiy iqtisodiy o'sishni uzoq muddatda 0,05 foiz ortishiga sabab bo'ladi. Bunda eng katta natija ta'limga xarajatlar asosida amalga oshiriladi. Ta'limga xarajatlarni 1 foiz ortishi umumiy ishlab chiqarishni uzoq muddatda 0,09 foiz o'sishiga sabab bo'ladi.

2-jadval


2024–2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijtimoiy soha xarajatlari asosida YaIMning o‘shishning prognoz qiymatlari¹⁸

Yillar	O‘rtacha		Pessimistik		Optimistik	
	YaIM o‘shishi	Ijtimoiy soha ulushi	YaIM o‘shishi	Ijtimoiy soha ulushi	YaIM o‘shishi	Ijtimoiy soha ulushi
2024	106,64	0,50	104,43	0,43	108,85	0,57
2025	106,37	0,50	103,66	0,43	109,08	0,58
2026	106,62	0,52	103,76	0,43	109,49	0,60
2027	106,86	0,52	104,05	0,43	109,68	0,61
2028	106,67	0,53	103,89	0,44	109,46	0,61

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirish uslubiyotini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlanadi, mazkur bobda davlat maktabgacha ta'lim muassalarida outsorsingdan foydalanish hamda ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish istiqbollari ko'rsatilgan. Ijtimoiy sohani moliyalashtirishda “natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish” uslubi va sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishda tibbiy sug'urta tizimidan foydalanish yo'nalishlari asoslangan.

Byudjet xarajatlarining samaradorligini baholash uslubi budjetning moddalar bo'yicha xarajatlarni optimallashtirish va budjet xizmati ko'rsatish natijalarini bog'lash imkonini beradigan indikatorlarni hisoblashga asoslangan. Davlat budjetidan maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, oziq-ovqat xarajatlari uchun ajratilgan mablag'larining natijaviyligi va samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy sohada davlat xaridi va outsorsingga qaratilgan nazariy, metodologik va tashkiliy masalalar o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni ovqatlantirishda outsorsingdan foydalanishning metodologik asoslariga nisbatan bir qator olim va tadqiqotchilar ilmiy munosabatlarini bayon etganlar. Outsorsing loyihasining muvaffaqiyati ko'p jihatdan mijozga outsorsing modelida “berish va unutish” sxemasini anglatmasligi tushuntiriladi.

¹⁸ Stata dasturi asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqildi.



8-rasm. Byudjet tashkilotlarida outsorsingdan foydalanish algoritmi¹⁹

Birinchi navbatda xizmat ko'rsatuvchi provayder bilan hamkorlik aloqalari shakllantiriladi. Ish natijalarining ijobiy bo'lishi buyurtmachi tomondan o'z vaqtida, to'liq, zarur ma'lumotlar berish hamda o'zaro kelishilgan shartnomaga rioya qilish bilan bog'liq. Fikrimizcha, outsorsing (outsourcing) – budjet tashkilotining turli funksiyalarini shu faoliyatni olib borishga ixtisoslashgan tashqi ijro etuvchilarga berishdir. Boshqacha qilib aytganda, outsorsing deganda, davlat sektorining nodavlat sektordan tovar, ish va xizmatlar sotib olinishi tushuniladi. Xorijiy mamlakatlarda outsorsing mexanizmi faqat xususiy sektorda foydalanilgan

¹⁹ Tadqiqotchi tomonidan mavzuga oid o'rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan.

bo'lsa, bugungi kunda budjet tashkilotlarida ham ijtimoiy xizmat ko'rsatish tashkilotlarida outsorsingdan unumli foydalanilmoqda.

Outsorsingdan foydalanish algoritmini aniqlashning birinchi bosqichida budjet xizmati ko'rsatishning to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatkichlar va yakuniy ko'rsatkichlari aniqlanadi. Byudjet xizmati ko'rsatishda outsorsingdan foydalanish algoritmini aniqlashning ikkinchi bosqichida mazkur ko'rsatkichlarning hisob-kitobi taqdim etiladi. Uchinchi bosqichda yakuniy ko'rsatkichlar bo'yicha natija indeksi aniqlanadi. To'rtinchi bosqichda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatkichlar indeksi bilan yakuniy ko'rsatkichlar indeksi yig'indisidan iborat yakuniy natijalar indeksi asosida budjet xizmatini outsorsingga berish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Yakuniy natijalar indeksi 0,25 punktdan kichik bo'lsa, budjet xizmatini outsorsingga berish to'g'risida qaror qabul qilish kerak, agar bu ko'rsatkich 0,25 punktdan 0 punktga bo'lsa, budjet xizmatining bir qismini outsorsingga berish mumkin. Agar bu ko'rsatkich 0 ga teng bo'lsa, budjet tashkiloti faoliyatini qayta tashkil etish zarur. Quyidagi 9-rasmda budjet tashkilotida outsorsingdan foydalanish algoritmi ko'rsatilgan. Byudjet xizmati ko'rsatishning alternativ varianti budjet tashkilotini moliyalashtirishning natijadorligi sifatida baholanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishni va ta'lim tizimidagi islohotlarni quyi bo'g'inidan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash zarurligi doim e'tiborga olinadi. O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari (SanPiN) asosida to'liq tashkil etiladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida outsorsing usulida ovqatlantirish «Davlat xaridlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Vazirlik) tasdiqlagan Tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan tanlov asosida tashkil etiladi.

Bizning fikrimizcha, ishonchli outsorsierlar bilan tuziladigan shartnomalar muddatini 1 yildan ortiq muddatga uzaytirishda davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun har bir lotda ma'muriy-geografik asosda bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan 250 baravardan 1000 baravargacha tabaqalashtirish orqali outsorsierga investitsiya kiritish majburiyatini belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning fiziologik yoshiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan talablar hamda ularni rasional kunlik ovqatlantirish me'yorlari belgilanganligidan kelib chiqib tanlov o'tkazish orqali salohiyatli tadbirkorlar aniqlanadi. Mazkur outsorsierlar tomonidan davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga investitsiya kiritiladi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida 63760 nafar tarbiyalanuvchini outsorsing usulida ovqatlantirish tashkil etish bo'yicha so'rovnomada ishtirok etgan 3358 nafar ota-onasi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, 2020 yilda 2921 nafar (87%) ota-onalar, 2021 yilda 2955 nafar (88%) ota-onalar, 2022 yilda 2988 nafar (89%) ota-onalar tomonidan outsorsierlar tayyorlagan taomlarga ijobiy baho berildi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari asosida amalga oshiriladi. Agar outsorsier

tomonidan tanlovdagi takliflariga ko'ra belgilangan muddatlarda investitsiya mablag'lari to'liq kiritilganda, o'z faoliyatida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshirganda, Kuzatuv kengashi va ota-onalar tomonidan e'tirozlar bo'lmaganda, Komissiya tomonidan shartnoma muddati kelgusi yillarga uzaytirilishi mumkin. Bunda ota-onalar o'rtasida har chorakda bir marta o'tkaziladigan so'rovnomalar natijalari Vazirlikda hisobi yuritilishi va yuzaga kelgan e'tirozlar mavjud holda Vazirlik ishchi guruhi joyiga chiqib o'rganilishi natijalari bo'yicha xulosa chiqariladi.

3-jadval

Maktabgacha ta'lim muassasida tayyorlangan taomnoma tarkibi²⁰


Ovqatning nomlanishi	Bir nafar tarbiyalanuvchi uchun oziq-ovqat hajmi	Non	Choy	Tuz	Un
Nonushta	...								
Tushlik	...								
Ikkinchi tushlik	...								
Kechki ovqat	...								
1 nafar tarbiyalanuvchi uchun	...								
Jami mahsulot miqdori	...								
Mahsulot narxi	...								
Sarflangan mablag' miqdori	...								
Tarbiyalanuvchilar soni	...								
Jami sarflangan mablag' miqdori	...								

Bizning fikrimizcha, bir nafar tarbiyalanuvchiga kunlik zaruriy kilokaloriya bo'yicha ovqatlantirish xarajatlarini moliyalashtirishda insonga e'tibor berish asosida yosh avlod sog'lig'i barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini oshirish xarakteridagi mexanizmni joriy qilinadi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narx siyosatiga rioya qilish bo'yicha samarali moliyaviy nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida outsorsing usulida ovqatlantirishda ota-onalar to'lovi tarbiyalanuvchilarni oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida yo'naltiriladi.

Autsorsarlarni quyidagi talablar va belgilangan tartib asosida tanlab olinadi: maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan texnik vazifalar asosida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish loyihasini individual reja asosida ishlab chiqib, taqdimotini o'tkazishi; taqdimotda tarbiyalanuvchilarni yoshi, jinsi, fiziologik holati bo'yicha turli guruhlar uchun (taomnoma bo'yicha) ovqatlanishning maqbul me'yorlarini ko'rsatishi; davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tuman (shahar) hokimligi tomonidan tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari doirasida amalga

²⁰ Tadqiqotchi tomonidan mavzuga oid o'rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan.

o'shirishi; outsorsing xizmatlari bo'yicha kamida ikki oylik shartnoma summasiga teng aylanma mablag'larining mavjudligi; tanlovda qatnashish uchun ariza berilgan kundan kamida bir oy oldin tegishli tashkilotlardan soliq qarzdorligi, to'lovlar, boshqa majburiy to'lovlar va moliyaviy sanksiyalarning mavjud emasligi.



9-rasm. Davlat tibbiy sug'urtasining yillar kesimida aholini qamrab olish prognozi²¹

10-rasmda davlat tibbiy sug'urtasining yillar kesimida aholini qamrab olish prognozi berilgan. O'zbekistonda majburiy tibbiy sug'urta tizimi 2021-yildan bosqichma-bosqich joriy etildi. Birinchi bosqich 2021 yili Sirdaryo viloyatida, ikkinchi bosqich 2023-yildan Qoraqalpog'istonda, Toshkent, Samarqand, Navoiy, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida, uchinchi bosqich 2025-yildan butun mamlakat bo'ylab joriy etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy sug'urtaning aholini ijtimoiy himoyalash tizimidagi o'rni va ahamiyati beqiyos, unga jalb qilingan fuqarolar salomatlikni o'z vaqtida va yaxshi narxda tiklashga erishadilar. Birinchidan, xavfli kasalliklarga chalinish ehtimolini kamaytiradi, ikkinchidan, odamlarning umr ko'rish davomiyligi oshiriladi. Bizning fikrimizcha, Davlat budjetidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan paket hajmi ro'yxatini shakllantirish va respublikaning barcha davlat tibbiyot muassasalarining rasmiy veb-saytida ro'yxatdan tegishli ko'chirmalar mazkur muassasalar faoliyati ixtisosligiga muvofiq har yili 31-dekabrgacha majburiy joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketi tibbiy yordam ko'rsatishning turlari kesimida tasdiqlanadi. Bemorning dori vositalari olishini ta'minlaydigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni hisobga olishning yagona elektron tizimi yaratiladi. "Elektron resept" (reimbursasiya) tizimi asosida kafolatlangan paket doirasida dori vositalari hamda tibbiy buyumlar va sarflov materiallarini Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi xarid qiladi.

²¹O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

XULOSA

Ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirish natijasida quyidagi ilmiy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Aholining yuqori turmush darajasi – shaxsning moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganligi, insonning bilimi, salomatligi, shaxsiy ehtiyojlarini ta'minlash imkoniyatini yaratilishidir. Ijtimoiy sohaga qarashli ta'lim va sog'liqni saqlash tashkiloti xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy maqsadi – aholi farovonligini nafaqat bugun, balki, istiqbolda to'liq ta'minlashdir.

2. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy kodeksini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Ijtimoiy kodeksida quyidagi atamalar va tushunchalar ko'rsatilishi kerak. Jumladan: ijtimoiy siyosatning maqsadi va ustuvorlari, ijtimoiy sohadagi huquqiy munosabatlar, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi, ijtimoiy standartlar, ijtimoiy sohani boshqarish, ijtimoiy sohani moliyalashtirish va nazorat qilish, ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklik.

3. Inson kapitaliga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligi iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi. Ijtimoiy investitsiyalarning inson kapitalida kapitallashuvi bilim olish, sog'lig'ini saqlash, malakasini oshirish va insonga ishlab chiqarishda faol ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan sharoit yaratish bilan bog'liq.

4. Tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish xarajatlari turli manbalardan amalga oshiriladi: budjet; majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug'urta; budjetdan tashqari mablag'lar. Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Yaponiya, Kanada kabi davlatlarda majburiy tibbiy sug'urta tizimi yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, Buyuk Britaniya, Shvesiya, Italiya, Gresiyada budjetdan moliyalashtirish tizimi keng tarqalgan. AQShda ixtiyoriy tibbiy sug'urta tizimi barqaror shakllangan.

5. Davlat byudjeti g'azna ijrosi – byudjet xarajatlari va daromadlari kassa ijrosini tashkil etishdir. Byudjet tashkilotlarining “kassiri” va “buxgalteri” sifatida g'aznachilik organlari Yagona g'azna hisobvarag'ini tashkil etadi va mablag'larning hisob-kitobini yuritadi. Byudjet tashkilotlarining xarajatlari orqali davlat ijtimoiy siyosati amalga oshiriladi, aholiga ijtimoiy nafaqalar to'lanadi va byudjetdan ijtimoiy soha xarajatlari moliyalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasidan tashqari boshqa organ Davlat byudjeti mablag'larini byudjet tashkilotlariga o'z vaqtida va maqsadli yetkazishni ta'minlash vakolatga ega emas. G'aznachilik organlarining faoliyati natijalari jamiyat uchun katta ahamiyatga ega.

6. Byudjet tashkilotlari tomonidan xarajatlar smetasida nazarda tutilmagan hamda maqsadsiz mablag'lar sarfining amalga oshirilishi, budjet tashkilotlarining ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)ning narxini belgilashda korrupsiyaning kuchayishi, budjetda rejalashtirilgan daromadlarning o'z vaqtida va to'liq tushumini ta'minlanmasligi oqibatida kassa uzilishlarining vujudga kelish muammosini hal etish maqsadida g'aznachilik tizimida kassali rejalashtirish tartibini takomillashtirish kerak.

7. Ijtimoiy soha tashkilotlarida budget mablag'laridan foydalanish samaradorligi, xarajatlarning shaffofligi, oshkoralik, xarid jarayonida korrupsiya mavjudligi kabi masalalar alohida ahamiyatga ega. Tovar, ish, xizmatlarni sotib olish samaradorligi ijtimoiy xizmatlarining sifati va o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq. Davlat buyurtmachisi (budget tashkiloti)ning manfaatlarini ta'minlaydigan davlat xaridi tizimini takomillashtirish kerak.

8. "Natijaviylikka yo'naltirilgan budgetlashtirish" texnologiyasi bilan ijtimoiy soha obyektlarini boshqarish darajasidan kelib chiqib, ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

a) mamlakatda dolzarb ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun strategik yondoshuvlarini shakllantirishga qaratilgan bazaviy texnologiyalar (maqsadli-dasturlash uslubi, ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, milliy loyihalar, ijtimoiy dasturlari;

b) ijtimoiy soha tashkilotlarini boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish uchun qo'llaniladigan funksional texnologiyalar (elektron hujjat aylanishi, outsorsing, "NYB").

9. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishda maktabgacha ta'lim tashkiloti xarajatlarning natijadorligini oshirish maqsadida outsorsingdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

10. Ijtimoiy sohada davlat-xususiy sektor hamkorligi – bu davlat sektoriga xususiy kapitalni jalb qilish va ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirishni uyg'unlashtirishdir. Maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi va oliy ta'lim tizimida ham bunday amaliyotning joriy etilishi mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlanishining yangi bosqichga olib chiqadi.

11. Bizning fikrimizcha, davlat tibbiy sug'urtasida shartnoma va kafolatlangan paket hajmi asosida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish uchun to'lovlarni "davolangan har bir holat" va bajarilgan ishlar natijasi asosida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

12. Davlat budgetidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan paket hajmi ro'yxatini shakllantirish va respublikaning barcha davlat tibbiyot muassasalarining rasmiy veb-saytida ro'yxatdan tegishli ko'chirmalar mazkur muassasalar faoliyati ixtisosligiga muvofiq har yili 31 dekabrgacha majburiy joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

13. Davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam va dori vositalari paketi tibbiy yordam ko'rsatishning turlari kesimida tasdiqlanadi. Bemorning dori vositalari olishini ta'minlaydigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni hisobga olishning yagona elektron tizimi yaratiladi. Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi "Elektron resept" (reimbursasiya) tizimida kafolatlangan paket doirasida dori vositalari, tibbiy buyumlar va sarflov materiallarini xarid qiladi.

14. Respublikamizda tibbiy xizmatlarining klinik tavsiyalari (bayonnomalari) va standartlari bilan uzviy bog'liq klinik-xarajat guruhlari (DRG tizimi)ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

15. O'zbekiston Respublikasida Yagona milliy birlashtiruvchi va xarid qiluvchi agentlik sifatida Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyat ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22\29.12.2023.I.175.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КАСИМОВА ГУЛЯР АХМАТОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ФИНАНСОВОГО
ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ В СИСТЕМЕ
КАЗНАЧЕЙСТВА**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (Doctor of Science)

Ташкент – 2024

Тема докторской диссертации (DSc) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2020.3.DSc/Iqt255 .

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tiu.uz) и информационно-образовательного портала «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный консультант: **Жумаев Нодир Хосиятович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Гулямов Саидахроп Саидахмедович**
доктор экономических наук, академик

Хайдаров Низомиддин Хамроевич
доктор экономических наук, профессор

Рахмонов Дилшоджон Алиджонович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Институт бюджетно-налоговых исследований при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «10» 08 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.22\29.12.2023.I.175.01. по присуждению ученой степени при Ташкентском международном университете. Адрес: 100114, г.Ташкент, Малая кольцевая дорога, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (регистрационный номер № 8). Адрес: 100114, г.Ташкент, Малая кольцевая дорога, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

Автореферат диссертации разослан «18» 07 2024 года.
(протокол реестра № 2 от «29» 05 2024 года.



Ш.Ш. Тураев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

А.Т. Абсаламов
Учёный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по экономическим наукам, доцент

Д.А. Рахмонов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире принимаются меры для обеспечения свободы личности получать социальное обеспечение, медицинские услуги, образование и проявлять свои способности. Согласно отчетам Всемирного банка, «Около 150 образовательных проектов общей стоимостью 15 млрд долларов США были профинансированы Всемирным банком для развития дошкольного образования, среднего образования и высшего образования с целью развития новых навыков у молодежи. На покрытие расходов на здравоохранение в развивающихся странах было выделено более 500 млн долларов США, из которых 425 млн долларов США были выделены на предотвращение заболеваний, которые могут привести к крупным эпидемиям»²². Требуется предоставления качественных медицинских услуг населению и резкое увеличения объема инвестиций в здравоохранение, улучшение финансирования инновационного здравоохранения, мобилизации внутренних и внешних финансовых ресурсов в социальную сферу.

Для обеспечения развития социальной сферы в мире совершенствуется система финансирования, основанная на использовании иерархической модели ее компонентов. При финансировании расходов социальной сферы уделяется внимание научным исследованиям, направленным на использование государственного и частного медицинского страхования, метода «ориентированного на результат бюджетирования», фондов «краудфандинг» и «эндаумент» (целевого капитала), практики государственно-частного партнерства в образовании и здравоохранении и последовательного повышения уровня жизни и благосостояния населения. Однако в этих исследованиях не до конца изучено расширение источников финансирования бюджетных организаций, связанных с образованием и здравоохранением на современном этапе экономического развития, своевременная оплата расходов бюджетных организаций социальной сферы в органах казначейства, контроль за бюджетными средствами, механизм повышения эффективности и целевого назначения бюджетных и внебюджетных средств.

Повышенное внимание к возвышению человеческого достоинства, проведению справедливой социальной политики и развитию человеческого капитала в Узбекистане требует выполнения задач, поставленных в приоритетах социальной политики, повышения эффективности использования бюджетных средств в финансовом обеспечении систем образования, медицины и социальной защиты, полностью отвечающих потребностям населения и международным стандартам. Это показывает актуальность исследования развития сферы образования и медицины с направлением бюджетных средств на социальные цели, цифровизации

²²<https://thedocs.worldbank.org/en/doc/259801562965232326-0270022019/original/2030Agenda2019finalweb.pdf>

образовательных и медицинских учреждений, увеличения средней продолжительности жизни, совершенствования методики финансирования расходов организаций социальной сферы по повышению уровня охвата детей трех-семи лет дошкольным образованием и высшим образованием молодежи.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в указах Президента Республики Узбекистан УП-5590 от 7 декабря 2018 года «О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан», УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-4312 от 8 мая 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года», ПП-4890 от 12 ноября 2020 года «О мерах по внедрению новой модели организации системы здравоохранения и механизмов государственного медицинского страхования в Сырдарьинской области», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 407 от 30 июня 2021 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы здорового питания в государственных дошкольных образовательных учреждениях», а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор международных научных исследований по теме диссертации²³. Научно-практические исследования по финансовому

²³The Financing of Education in Philippines. Tenazas, N. 2022. Costing and Financing SDG4-Education 2030 in the Asia-Pacific Region Project. UNESCO 2022. <https://bangkok.unesco.org/>; «Public funding of health spending», in Health at a Glance 2019:OECD Indicators, OECD Publishing, Paris.DOI: <https://doi.org/10.1787/7f66369c-en> ; Marta Łakomy-Zinowik., Zuzana Horváthova. Public - private partnerships as a way of financing in the healthcare system (based on the examples of Poland and The United Kingdom). November 2016. 9(3):150-158.; Denis E. Matytsin, Valentin A. Dzedik, Galina A. Markeeva, Saglar B.Boldyreva. «Smart» outsourcing in support of the humanization of entrepreneurship in the artificial intelligence economy. Humanities and social sciences communications |(2023)10:13 | <https://doi.org/10.1057/s41599-022-01493-x>.; Matti Ylönen. Cities as world-political actors? The «tax haven free» cities initiative and the politics of public procurement. Palgrave communications.| 2:16041 | DOI: 10.1057/palcomms.2016.41 <http://www.palgrave-journals.com/palcomms>.; McCordR., Connolly R., Freeman Z., Whitener V., and K Konopaski. (December 2021). Review of the Health Care Authority's Budget Structure. 21-04 Final Report.; Joint Legislative Audit and Review Committee, Olympia, Washington. https://leg.wa.gov/jlarc/reports/2021/HCA/f_3/print.pdf ; Megan Schoor, Mandy Stahre and Eddy Rauser. Medical Assistance Expenditures Forecast Charter Project Summary. MAEFW Charter Project. OFM Forecasting and Research Division. Washington. Shazia Kousar. Farhan Ahmed. Muhammad Afzal & Juan E. Trinidad Segovia. Is government spending in the education and health sector necessary for human capital development? Humanities and social sciences communications. (2023) 10:62 | <https://doi.org/10.1057/s41599-023-01514-3>.; Sandro Marques& Eduardo Damião da Silva. Cost-effectiveness in health: consolidated research and contemporary challenges. Humanities and social sciences communications. (2021) 8:254 | <https://doi.org/10.1057/s41599-021-00940-5/>; V. Kyryliuk, I. Ryabokon. Role of social sphere in ensuring quality of working life. (2021) VUZF review, 6(3). <https://portal.issn.org/resource/issn/2534-9228>.

обеспечению социальной сферы и финансированию социальной сферы проводят международные организации, ведущие университеты и центры мира, в том числе World Vapк, The Financing of Education in Philippines (UNESCO), Public funding of health spending (OECD), Department of Business & Economics, Universidad de Almeria (Spain); University of Helsinki and Aalto University Business School (Finland); University of Szczecin (Poland); Metropolitan University Prague (Czech Republic); NED University of Engineering & Technology (Pakistan); Московский государственный институт международных отношений Министерства иностранных дел Российской Федерации (МГИМО); Ташкентский финансовый институт (бывший), Ташкентский государственный экономический университет, Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Ташкентский государственный технический университет, Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан, Самаркандский институт экономики и сервиса.

В проводимых в мире научных исследованиях по совершенствованию финансирования расходов социальной сферы получены следующие научные результаты, в том числе: на основе порядка финансирования системы здравоохранения и государственного медицинского страхования лежат определение и оценка показателей правильного прогнозирования доходов и расходов медицинских учреждений, а на основе анализа затрат лежит достижение стабильности затрат в системе здравоохранения (The Medical Assistance Expenditure Forecast Workgroup, Washington); научно обоснована необходимость разработки альтернативных вариантов повышения качества медицинских услуг, решения актуальных проблем в системе здравоохранения, возникших до «Covid-19» в государственном и частном секторах (Stanford University–EUA, Stanford, CA, USA); обоснованы возможности эмпирического анализа и оценки краткосрочных и долгосрочных связей между дошкольным образованием, школьным образованием и высшим медицинским образованием (Department of Business & Economics, Universidad de Almeria, Spain); обоснована возможность решения текущих проблем, связанных с социальной сферой на основе механизма инициативного составления бюджета посредством участия граждан в процессе формирования государственного бюджета в стране (University of Helsinki and Aalto University Business School, Finland); обоснована возможность наиболее оптимального партнерства ГЧП при финансировании социальных проектов, связанных со сферой медицины и образования (Metropolitan University Prague, Czech Republic); получено научное объяснение динамической взаимосвязи между расходами государственного бюджета на здравоохранение и продолжительностью жизни населения (NED University of Engineering & Technology, Pakistan); определены и оценены показатели аутсорсинга бюджетных услуг на основе определения алгоритма использования аутсорсинга бюджетными организациями, итогового индекса эффективности, состоящий из

совокупности итогового индекса эффективности с прямым индексом эффективности Московский государственный институт международных отношений Министерства иностранных дел Российской Федерации (МГИМО); обоснована возможность оптимизации бюджетных расходов за счет использования услуг конкурентоспособных рыночных субъектов (аутсорсеров) при предоставлении бюджетных услуг (Волгоградский государственный университет, Россия).

